

# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– iyul holatiga


## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1598 taga o'sdi**
- Faoliyat ko`rsatmayotgan korxonalarnining ulushi **0,6 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1466 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-iyul Buning natijasida joriy oyida viloyatda 2071 taga ya- yilning boshiga nisbatan qin korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan korx yangi tashkil etildi, bu esa ona va tashkilotlar soni 1534 o'tgan yilning shu davriga ta (9,8%) ga nisbatan o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 17159 tani tashkil etgan.

Shuningdek, faoliyati tutgatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning korxonalar va tashkilotlar shu davriga nisbatan 25,0 % ning asosiy ulushi Buxoro ga kamaygan hamda ular shahrida (32,3 %), G'ijduvon ning soni 605 tani tashkil (10,5%), Romitan (7,6%) va etganligini kuzatish mumkin. Buxoro (7,1 %) tumanlarida kuzatilmogda.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**  
 (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar  
 va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**  
 (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 avgust holatiga)


	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
<b>Buxoro biloyat buyicha</b>	<b>18043</b>	<b>100,0</b>	<b>17159</b>	<b>100,0</b>
tumanlar:				
Olot	623	3,5	560	3,3
Buxoro	1344	7,4	1210	7,1
Vobkent	875	4,8	853	5,0
G'ijduvon	1924	10,7	1796	10,5
Kogon	930	5,2	864	5,0
Q'orako'l	924	5,1	878	5,1
Q'orovulbozor	334	1,9	326	1,9
Peshko'	1105	6,1	1074	6,2
Romitan	1338	7,4	1298	7,6
Jondor	1217	6,7	1161	6,8
Shofirkon	1112	6,2	1001	5,8
shaharlar				
Buxoro sh.	5707	31,6	5547	32,3
Kogon sh.	610	3,4	591	3,4

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 21,3 % savdoda, 14,2 % sanoatda, 10,4 % qurulishda, 9,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 6,4 % tashish va saqlash, 1,2 % axborot va aloqa, 2,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 27,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### **Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




### **Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda**




2018 yil yanvar-iyul holatiga 2071 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 47,2 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Buxoro shahrida (635 ta), Romitan (221 ta), G'ijduvon (163 ta) va Shofirkon tumanlarda (144 ta) tashkil etilgan. Eng kam Q'orovulbozor (51 ta), Olot (68 ta) hamda Vobkent (89 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### **Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda**



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (330 ta), sanoatda (306 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (305 ta) va qurilishda (284 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (64 ta), axborot va aloqada (31 ta) hamda tashish va saqlashda (68 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-iyul holatiga.	2018 yil yanvar-iyul holatiga.
<b>Jami:</b>	<b>1407</b>	<b>2071</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	311	305
Sanoat	341	306
Qurilish	159	284
Savdo	208	330
Tashish va saqlash	65	68
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	108	161
Axborot va aloqa	25	31
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	43	64
Boshqa turlari	147	522

## **Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**

2018 yil 1 avgust holatiga 14043 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar – 3042 ta, oilaviy korxonalar – 820 ta, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar – 9812 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 23 tani va boshqalar 346 tani tashkil etadi.



## **Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**

2018 yil 1 avgust holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 119 tani tashkil etdi. O’tgan yilning shu davriga nisbatan 34 taga yoki 40,0 % ga o’sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalardan 80 tasi qo’shma korxonalar, 39 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahar 71 ta (59,7 %), Vobkent tumani 9 ta (7,6 %) va Kogon tumanlari 8 ta (6,7 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar G'ijduvon tumani 2 ta (1,7 %), Qorovulbozor tumani 2 ta (1,7 %), Shofirkon tumani 2 ta (1,7 %) va Kogon shahri 2 ta (1,7 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

## **Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda**



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 avgust holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 68 ta (57,1 %), savdoda 19 ta (16,0 %) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 10 ta (8,4 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlashda 1 ta (0,8 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 2 ta (1,7 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 5 ta (4,2 %), va qurilishda 5 ta (4,2 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda tashish va saqlashda faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

## **Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



2018 yilning yanvar-iyul oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 27 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18 taga ko'paygan yoki 3,4 baravarga oshgan.


Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 8 ta, Turkiya Respublikasi – 6 ta, Xitoy Xalq Respublikasi- 2 ta, Qozog'iston Respublikasi – 1 ta va Koreya Respublikasi – 5 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

### **Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-iyul holatiga) birlikda**



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 10 ta, savdoda 5 ta, qurilishda 2 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 4 ta va boshqa faoliyat turlarida 6 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



## Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 avgust holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 13916 tasi tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 avgust holatiga qaraganda 10,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 4717 tasi (33,9 %) Buxoro shahriga, 1463 tasi (10,5 %) G'ijduvon, 1076 tasi (7,7 %) Romitan, hamda 998 tasi (7,1 %) Buxoro tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 13916 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3621 tasi (26,0 %) – savdoda, 2407 tasi (17,3 %) - sanoatda, 1756 tasi (12,6 %) - qurilishda, 1648 tasi (11,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1060 tasi (7,6 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1096 tasi (7,9%) - tashish va saqlashda, 194 tasi (1,4 %) - axborot va aloqa sohasida, 398 tasi (2,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1736 tasi (12,5 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariга to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariга to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-iyul holatiga 1785 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 31,6 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Buxoro shahrida (570 ta), Romitan (196 ta), G'ijduvon (137 ta) va Shofirkon tumanlarida (119 ta) tashkil etilgan. Eng kam Qorovulbozor (48 ta), Olot (56 ta) hamda Vobkent (73 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (328 ta), sanoatda (305 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (303 ta) va qurilishda (284 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (64 ta), axborot va aloqada (31 ta) hamda tashish va saqlashda (68 ta) tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 avgust holatiga 864 tani tashkil etib, ulardan 820 tasi yoki 94,9 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'satayotganlarning umumiy soni o'rtacha 33,4 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

## Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 28,2 % yoki 231 tasi sanoat, 31,8 % yoki 261 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 14,4 % yoki 118 tasi savdo, 13,3 % yoki 109 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,2 % yoki 10 tasi qurilish, 0,7 % yoki 6 tasi axborot va aloqa, 1,0 % yoki 8 tasi tashish va saqlash, 2,2 % yoki 18 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish hamda 7,2 % yoki 59 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

### **Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



Buxoro viloyat statistika boshqarmasi  
Statistika registrlarni yuritish va tizimli  
xizmat ko`rsatish bo'limi.

Nashr uchun mas'ul:  
F.Hakimova  
(065)2238320

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat  
registr (KTYDR) ma'lumotlari asosida  
tayyorlangan